

**KIMYO**

1. Quyidagi moddalardan qaysi biri alkanlar sinfiga mansub? A)  $\text{CH}_4$  B)  $\text{C}_8\text{H}_{10}$  C)  $\text{C}_4\text{H}_6$  D)  $\text{C}_3\text{H}_4$

2.  $\text{C}_2\text{H}_5\text{-C}(\text{CH}_3)_2\text{-CH}_2\text{-CH}(\text{CH}_3)\text{-CH}_3$  ushbu alkanni ratsional nomenklatura bo'yicha nomlang.

A) Tetrametil etil metan B) Dimetil etil izobutil metan  
C) Dimetil izobutil etan D) 2.4.4 trimetil geksan

3.  $\text{CH}_3\text{-C}(\text{CH}_3)_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}(\text{CH}_3)\text{-CH}_3$  ushbu alkanni sistemik nomenklatura bo'yicha nomlang.

A) 2.2.5 trimetil heptan B) 2.2.5 trimetil geksan  
C) 2.2.4 trimetil geksan D) 2.2.3 trimetil geksan

4. 2,4-dimetilgeksan molekulasida nechta birlamchi uglerod bor? A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

5. 2-metilpentan molekulasida nechta ikkilamchi uglerod bor? A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

6.  $\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-C}(\text{CH}_3)_2\text{-CH}_2\text{-CH}_3$  ushbu alkanni sistemik nomenklatura bo'yicha nomlang.

A) 2.2 dimetil geksan B) Dimetil etil propil metan  
C) 2.2 dimetil geksan D) 3.3. dimetil geksan

7.  $\text{CH}_3\text{-C}(\text{CH}_3)_2\text{-CH}_3$  ushbu alkanni ratsional nomenklatura bo'yicha nomlang.

A) Tetrametil metan B) Dimetil propan  
C) Dimetil etan D) 2.2 dimetil propan

8.  $\text{C}_4\text{H}_9\text{-Br}$ ,  $\text{C}_2\text{H}_5\text{-Br}$ ,  $\text{CH}_3\text{-CH}(\text{CH}_3)\text{-Br}$  aralashmasiga Na metali ta'sir ettirilganda, quyidagi alkanlardan qaysi biri hosil bo'lmaydi?

A) geksan B) pentan C) 2.3-dimetilbutan D) butan

9.  $\text{C}_4\text{H}_9\text{-Br}$ ,  $\text{CH}_3\text{-C}(\text{CH}_3)_2\text{-CH}_2\text{-Br}$ ,  $\text{CH}_3\text{-CH}(\text{CH}_3)\text{-Br}$  aralashmasiga Na metali ta'sir ettirilganda, quyidagi alkanlardan qaysi biri hosil bo'lmaydi?

A) oktan B) butan  
C) 2.3-dimetilbutan D) 2.2.5.5-tetrametilgeksan

10. 76 g metan va etan aralashmasi yondirilganda 220 g  $\text{CO}_2$  hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi metan massasini (g) toping. A) 16 B) 32 C) 40 D) 8

11. 16 g noma'lum alkan monoxlorlanganda 50,5 g monoxlor alkan hosil bo'ldi. Alkan tarkibidagi  $\text{sp}^3$  gibridlangan orbitallar sonini aniqlang.

A) 4 B) 8 C) 12 D) 16

12. Bertoli usulida metan sintez qilish reaksiyasidan hosil bo'lgan tuz va gazning massalari ayirmasi 624 g ga teng bo'lsa, reaksiya uchun olingan  $\text{CS}_2$  massasini (g) hisoblang. A) 19 B) 76 C) 152 D) 38

13. 2,4-dimetil-1,5-dixlorpentanga Mg metali ta'sir ettirilganda qaysi sikloalkan hosil bo'ladi?

A) propilsiklopropan B) metilsiklopropan  
C) 1,3-dimetilsiklopentan D) 1,1-dimetilsiklobutan

14. 1,3-dibromgeksanga Mg metali ta'sir ettirilganda qaysi sikloalkan hosil bo'ladi?

A) propilsiklopropan B) metilsiklopropan  
C) 1,3-dimetilsiklopentan D) 1,1-dimetilsiklobutan

15. 0,1 mol sikloalkanni to'la yondirish uchun n.sh. da o'lgangan 100,8 litr havo sarflangan bo'lsa, sikloalkanni toping. (Havo tarkibida kislorodning hajmiy ulushi 20%)

A) etilsiklopropan B) etilsiklogeksan  
C) propilsiklobutan D) metilsiklopentan

16. Molekulasida 40 proton saqlagan sikloalkanni 70 g miqdoridan foydalanib necha g alkan olish mumkin?

A) 76 B) 73 C) 72 D) 74

17. Butan va siklobutandan iborat 28,6 g aralashma to'la gidrogenlanganda 29 g butan hosil bo'lsa, aralashma tarkibidagi siklobutan massasini (g) hisoblang.

A) 5,6 B) 11,2 C) 22,4 D) 33,6

18. 35 g siklopentan yonishidan hosil bo'lgan  $\text{CO}_2$  necha g  $\text{KOH}$  bilan reaksiyaga kirishadi? (Reaksiyadan faqat o'rta tuz hosil bo'lgan)

A) 168 B) 184 C) 560 D) 280

19. 0,1 mol sikloalkanni yondirish uchun 33,6 g ozon-kislorod aralashmasi sarflangan bo'lsa, sikloalkanni toping? A)  $\text{C}_4\text{H}_8$  B)  $\text{C}_5\text{H}_{10}$  C)  $\text{C}_7\text{H}_{14}$  D)  $\text{C}_6\text{H}_{12}$

20. 564 g dixloralkanga Mg metali ta'sir ettirilganda, 380 g  $\text{MgCl}_2$  hosil bo'lsa, sikloalkanni toping.


A)  $\text{C}_7\text{H}_{14}$  B)  $\text{C}_5\text{H}_{10}$  C)  $\text{C}_8\text{H}_{16}$  D)  $\text{C}_6\text{H}_{12}$

21. Alkanlar bu - ...

A) Umumiy formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$  bo'lgan vodorod va boshqa elementlarni o'ziga biriktirib olmaydigan uglevodorodlar

B) To'yingan siklik uglevodorodlar

C) Umumiy formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$  bo'lgan vodorod va boshqa elementlarni o'ziga biriktirib olmaydigan to'yingan uglevodorodlar

**+998 99 733 02 10**



D) Umumiy formulasi  $C_nH_{2n+2}$  bo'lgan vodorod va boshqa elementlarni o'ziga birlashtirib oladigan uglevodorodlar

22. Parafin so'zining ma'nosi - ...

- A) kam aktiv B) aktiv  
C) to'yingan D) to'yingan

23. Alkanlar – to'yingan uglevodorodlarni qaysi nomenklatura bo'yicha nomi?

- A) Tarixiy B) Ratsional  
C) Xalqaro D) Tuzilish

24.  $C_nH_{2n+2}$  formulada n nimani bildiradi?

- A) Uglerod hajmini B) Vodorod massasini  
C) Uglerodlar sonini D) Uglerod va vodorod nisbatini

25. Kimyoviy xossalari o'xshash bir-biridan  $CH_2$  gruppaga farq qiladigan birikmalar ... deyiladi.

- A) Izomer B) Tuzilish formula  
C) Empirik formula D) Gomologlar

26. Alkanlarning qaysi vakillari tarixiy nomi saqlanib qolgan?

- 1.pentan 2.etan 3.butan 4.geksan 5.propan 6.oktan  
7.metan  
A)2,3,5,7 B)1,4,6 C)2,4,6 D)1,3,4,5

27. Alkanlarni izomerlar soni bilan juftlab yozing.

- 1.geksan 2.pentan 3.geptan 4.oktan 5.nonan 6.dekan  
a) 5 b) 3 c) 9 d) 75 e) 35 f) 18  
A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e, 6-f  
B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-f, 5-e, 6-d  
C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-f, 5-e, 6-d  
D) 1-e, 2-f, 3-c, 4-d, 5-a, 6-b

28. Alkanlarning gomologik qatorini tartib bilan joylashtiring.

1. propan 2. pentan 3. metan 4. butan 5. geksan  
6. etan 7. geptan 8.oktan  
A) 3,6,1,4,2,5,7,8 B) 6,3,4,2,5,1,8,7  
C) 8,7,5,2,4,1,6,3 D) 3,6,4,1,2,5,7,8

29. To'yingan uglevodorodlardan bitta vodorod atomiga kam bo'lsa bu ... deyiladi.

- A) gomologlar B) izomerlar  
C) radikallar D) alkenlar

30. Radikallarni nomlashda alkanlardagi “-an” qo'shimchasi o'rniga qaysi qo'shimcha qo'shish orqali nomlaydilar?

- A) -en B) -il C) -ilen D) siklo-

*Yaxshilab o'qigin yuravermasdan!  
Darsda ko'chirma, o'zing bajar!  
Alloh korib turipti harakat qil!  
Ota-onang o'ynab pul topmayapti!*



+998 99 733 02 10

